



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


***Dastlabki ma'lumot  
2024-yil yanvar***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 72-221-51-26***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 914 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 854 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 674,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 110,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 32,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 80,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 641,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 202,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 130,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	674,2	110,5
Jizzax sh	224,1	112,8
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	17,3	106,9
Baxmal	41,7	110,3
G'allaorol	75,9	110,4
Sh Rashidov	52,3	110,5
Do'stlik	32,1	108,4
Zomin	83,3	109,3
Zarbdor	41,4	108,2
Mirzacho'l	19,7	109,3
Zafarobod	16,6	106,2
Paxtakor	44,8	109,7
Forish	17,5	109,3
Yangiobod	7,5	107,0


2024-yilning yanvar oyida 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Jizzax shahri (112,8 %), Sh.Rashidov (110,5 %) va G'allaorol (110,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 128,8 % ni tashkil qildi.

## 2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **110,5 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 33,1 % bilan 224,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,1 % bilan 7,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 641,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 12,6 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,1 % ni tashkil etdi.

## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 80,3 % ni tashkil qildi va 32,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,9 % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,7 %), Zarbdor (99,5 %) va Mirzacho'l (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (14,9 %), Jizzax shahri (6,6 %), G'allaorol (3,8 %), Sh.Rashidov (2,2 %) tumanlarida kuzatildi.

**4,9 %**

**95,1 %**




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



**Hududlar kesimida ma’lumot, ming so‘mda**



2024-yilning 1-fevral holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 452,0 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 108,1 %) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (1 157,0 ming. so‘m), Paxtakor (559,4 ming. so‘m) va Zomin (469,6 ming. so‘m) tumanlarilari hissasiga to‘g‘ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>202,7</b>	<b>130,3</b>
Jizzax sh	47,0	173,3
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	0,1	109,8
Baxmal	18,0	119,2
G‘allaorol	27,0	124,6
Sh Rashidov	15,7	126,9
Do‘stlik	11,6	108,6
Zomin	25,4	133,2
Zarbdor	16,9	117,3
Mirzacho‘l	10,1	111,0
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	20,3	122,1
Forish	8,5	111,0
Yangiobod	2,1	123,4


\* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
(2024-yil yanvar)














Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2024-yil yanvar)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 202,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 130,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 90,3 mlrd. so'mni (157,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 112,4 mlrd so'mni tashkil etdi (131,3 %).













2024-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 90,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (28,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>28,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>31,1 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>13,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>14,4 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>8,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>9,6 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>4,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,2 %</p>	<p><b>Qurtilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>3,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,3 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>5,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>6,1 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>5,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,5 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>3,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,5 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>13,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>15,0 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>2,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,7 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>2,3 mlrd. so'm</b></p> <p>2,5 %</p>

2024-yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 112,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 83,0 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 26,7 mlrd. so'mni, otlar – 2,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>47,5 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>35,5 %</b></p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>18,8 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>16,7 %</b></p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>16,7 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>14,9 %</b></p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>22,5 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>20,0 %</b></p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>2,2 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>2,0 %</b></p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>4,2 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>3,7 %</b></p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,3 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,3 %</b></p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,1 %</b></p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,0 %</b></p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,0%</b></p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1046 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar mavjud emas, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>23,7</b>	<b>108,9</b>
Jizzax sh	11,3	108,9
tumanlar :		
Arnasoy	0,1	107,0
Baxmal	0,8	108,4
G'allaorol	1,4	110,3
Sh Rashidov	4,8	109,0
Do'stlik	0,7	108,9
Zomin	1,5	109,7
Zarbdor	0,8	107,8
Mirzacho'l	0,3	107,5
Zafarobod	0,4	107,8
Paxtakor	1,1	108,1
Forish	0,2	109,7
Yangiobod	0,3	107,9

2024-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 23,7 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>488,9</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh	92,8	19,0
tumanlar :		
Arnasoy	0,3	0,1
Baxmal	274,9	56,2
G'allaorol	31,9	6,5
Sh.Rashidov	58,7	12,0
Do'stlik	0,3	0,1
Zomin	27,6	5,6
Zarbdor	0,0	0,0
Mirzacho'l	0,0	0,0
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	0,1	0,0
Forish	1,9	0,4
Yangiobod	0,4	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Baxmal (274,9 mlrd. so'm), Jizzax shahri (92,8 mlrd. so'm) va Sh.Rashidov (58,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024-yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 488,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 64,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 163,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 224,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 6 441,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 145,1 %) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 300,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga o‘ydi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 296,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 98,5 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Sh.Rashidov (189,0 %), Arnasoy (138,2 %) va Do‘stlik (137,2 %) tumanlarida kuzatildi.

	<b>Jami mlrd. so‘m</b>	<b>2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>300,9</b>	<b>104,0</b>
Jizzax sh	154,6	113,5
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	0,7	110,1
Baxmal	5,6	20,7
G‘allaorol	10,1	115,9
Sh Rashidov	26,6	114,3
Do‘stlik	22,6	112,0
Zomin	43,7	111,0
Zarbdor	5,6	109,8
Mirzacho‘l	1,1	108,5
Zafarobod	2,9	108,3
Paxtakor	4,1	110,4
Forish	21,6	108,8
Yangiobod	1,7	110,0